

SAVOD O‘RGATISH DAVRIDA BOSHLANG‘ICH YOZUVGA O‘RGATISH

Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Hoijiyeva Nasiba Bahodirovna

Osiyo xalqaro universiteti talabasi

Ismatova Madinabonu

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatish jarayonida yozuv malakalarini shakllantirishning ahamiyati va metodik yondashuvlari yoritilgan. Boshlang‘ich yozuvga o‘rgatish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, savodxonligi va nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Maqolada yozuvga o‘rgatish bosqichlari, didaktik materiallardan foydalanish yo‘llari va muallimning pedagogik mahorati muhim o‘rin egallashi haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta‘lim, savod o‘rgatish, yozuvga o‘rgatish, didaktik materiallar, yozma nutq, metodika*

KIRISH

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichi har bir o‘quvchining o‘quv faoliyatiga poydevor qo‘yadigan muhim davr hisoblanadi. Ayniqsa, savod o‘rgatish jarayonida yozuvga o‘rgatish o‘quvchilarning nafaqat texnik yozish ko‘nikmasini, balki tafakkuri, eslab qolish qobiliyati va nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda yozuv malakalarini rivojlantirishda zamonaviy metodik yondashuvlar va interfaol metodlardan foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Shu jihatdan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining malakasi va qo‘llaydigan uslublari o‘quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun asos yaratadi.

Yozuvga o‘rgatishning tashkiliy va gigienik shartlari. Maktabda asosiy yozuv quroli sharikli ruchka bo‘lib, xattaxtaga yozishda bo‘rdan foydalaniladi.

Savod o‘rgatish davrida bolalarni yozuvga o‘rgatish uchun turli vaqtlarda turli xil chiziqli daftarlardan foydalanilgan: dastlab chiziqsiz silliq qog‘oz ishlatilgan bo‘lsa, keyin quyuq yotiq chiziqlar bilan kesilgan uch chiziqli daftardan foydalanilgan:

Bunday daftarda yozuvga o‘rgatilgan boladan boshlang‘ich sinflarni bitirguncha besh xil daftarga yozishni o‘rganish talab etilar edi:

Hozirgi vaqtda yozuvga o‘rgatish uchun ikki chiziqli daftar tavsiya etiladi. Xattaxta ham shunga mos bo‘lishi talab qilinadi; 2-sinfdan, ba‘zan birinchi sinfda o‘quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab bir chiziqli daftarga yozishga o‘tiladi.

O‘qish va yozuv darslariga qo‘yiladigan talablar. Dars ta‘limning asosiy shakli hisoblanadi. Analitik-sintetik tovush metodi asosida olib boriladigan savod o‘rgatish darslari xilma-xil bo‘lishi, o‘quvchilarni zeriktirmasligi va charchatib qo‘ymasligi kerak.

Savod o‘rgatish davridagi o‘qish yoki yozuv darslari va ularning ayrim turlari uchun umumiy bo‘lgan asosiy talablar mavjud:

1. Umumdidaktik talablar:

10-Aprel, 2025-yil

a) har bir darsning tarbiyaviy maqsadi bo‘lib, unda bironta axloqiy sifat o‘stirilishi lozim;

b) darsning ta’limiy maqsadi, ya’ni o‘quvchilar darsda qanday yangilikni bilishi, nimani o‘rganishi, qanday ko‘nikma va malakalar o‘stirilishi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va faolligining qanday bo‘lishi aniq belgilab olinishi kerak;

2. Maxsus metodik talablar:

a) o‘quvchilar nutqi uchun qayg‘urish, darsda adabiy til nuqtai nazaridan to‘g‘ri, ifodali, obrazli, aniq nutqqa erishish lozim;

b) o‘qish darsida ham, yozuv darsida ham o‘quvchilar nutqini o‘stirishga, lug‘atini boyitishga, gap tuzish va uni tahlil qilishga, og‘zaki hqikoyalash va shu kabi ish turlariga alohida ahamiyat qaratish kerak;

O‘qish va yozuv darslarining turlari. Savod o‘rgatish jarayonidagi darslar quyidagi belgilariga ko‘ra farqlanadi:

1. Ta’limning predmetiga ko‘ra:

a) “Alifbe” darsligi asosidagi o‘qish darslari;

b) “Yozuv daftari” asosidagi yozuv darslari.

2. Ta’limning davri va bosqichlariga ko‘ra:

a) alifbogacha bo‘lgan davrdagi darslar;

b) alifboni o‘rganish jarayonidagi darslar.

3. Darsda yangi mavzu o‘tilishi va o‘tilmasligiga ko‘ra:

a) yangi tovush-harf o‘rganiladigan o‘qish darslari;

b) yangi harfni yozish darslari;

v) yangi tovush-harf o‘rganilmaydigan darslar.

Xulosa

Savod o‘rgatish davrida boshlang‘ich yozuvga o‘rgatish jarayoni har tomonlama puxta rejalashtirilgan, bosqichma-bosqich va izchil olib borilishi lozim. Yozuv malakalarining samarali shakllanishi uchun o‘qituvchi o‘z faoliyatini metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etishi, o‘quvchilarda yozuvga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishi zarur. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati o‘quv materiallarining to‘g‘ri tanlanishi, darsda interfaol usullarning qo‘llanilishi va pedagogik yondashuvning individual xarakterga ega bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hojiyeva Nasiba Bahodirovna. (2024). Ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinflarda texnologiya fanini o‘qitish muammosining yoritilish mazmuni. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(1),200–206.

2. Hojiyeva Nasiba Bahodirovna. (2024). THE SIGNIFICANCE OF EDUCATIONAL TRAINING IN PRIMARY CLASSES. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(2), 439–447.

10-Aprel, 2025-yil

3. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING METODOLOGIK VA ILMIY ASOSLARI.
4. Hojiyeva, N. (2023). METHODS OF TEACHING MOTHER TONGUE IN PRIMARY CLASSES SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASIS. *Modern Science and Research*, 2(9), 424-428.
5. Hojiyeva, N. (2023). THE SUBJECT AND TASKS OF THE METHOD OF TEACHING THE MOTHER TONGUE IN PRIMARY GRADES. *Modern Science and Research*, 2(10), 855-857.
6. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI.
7. Bahodirovna, H. N. (2023). TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O 'QITISH MUAMMOSINING YORITILISH MAZMUNI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 209-209.
8. Bahodirovna, H. N. (2023). Methodological Foundations of Teaching the Science of" Education" in Primary Grades. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 369-372.
9. Hojiyeva, N. B. (2023). MODERN METHOD IN TEACHING MOTHER LANGUAGE LESSONS-USING THE CACOGRAPHY METHOD. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 434-439.
10. Bahodirovna, H. N. (2024). DEVELOPMENT OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON EDUCATIONAL COMPETENCIES. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(4), 203-208.
11. Bahodirovna, H. N. (2024). AND ESSENCE OF THE EDUCATIONAL PROCESS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 328-333.
12. Bahodirovna, H. N. (2023). Prognosis of Placental Insufficiency in Pregnant Women Treated for Coronavirus. *Eurasian Medical Research Periodical*, 20, 228-236.